

O'QUVCHILARNING MA'NAVİY DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHDA ART-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Raxmonova Marjona Ilxomjon qizi

ISFT University Samarqand filiali Pedagogika yo'nalishining 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19035849>

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lim tizimida nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning ma'naviy, estetik va ijodiy salohiyatini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Art-pedagogika o'quvchilarning his-tuyg'ulari, tasavvuri va ijodiy fikrlashini rivojlantirish orqali ularning shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, tasviriy san'at, musiqa, drama, ijodiy yozuv kabi san'at turlarining pedagogik jarayondagi o'rni haqida ham fikr yuritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, art-pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: art-pedagogika, pedagogik texnologiya, ma'naviy dunyoqarash, ijodkorlik, estetik tarbiya, san'at orqali ta'lim, innovatsion metodlar, ta'lim jarayoni.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk, keng dunyoqarashga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalashdir.

Zamonaviy jamiyat sharoitida o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning ma'naviy, estetik va madaniy saviyasini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda pedagogika sohasida yangi yondashuvlardan biri sifatida art-pedagogika keng qo'llanilmoqda.

Art-pedagogika san'at vositalari orqali o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik yo'nalishdir. U tasviriy san'at, musiqa, teatr, adabiyot va boshqa ijodiy faoliyat turlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ma'naviy dunyoqarash – insonning hayot, jamiyat, axloqiy qadriyatlar, madaniyat va insoniy munosabatlarga bo'lgan qarashlari majmuasidir. O'quvchilarda bunday dunyoqarashni shakllantirish esa nafaqat nazariy bilimlar, balki ijodiy va estetik tarbiya orqali ham amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, art-pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Art-pedagogika tushunchasi va uning ta'limdagi o'rni. Art-pedagogika – bu san'at vositalari orqali shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yo'nalishdir. Ushbu metod o'quvchilarning emotsional holatini barqarorlashtirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va estetik didini shakllantirishga yordam beradi.

Hamda Ta'lim jarayonida art-pedagogika juda keng imkoniyatlarni yaratadi va bularni tashkil etadi. Jumladan, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish; estetik didni shakllantirish; mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantirish; ma'naviy qadriyatlarni chuqur anglashga yordam berish; o'quvchilarning ruhiy holatini barqarorlashtirish kabi San'at orqali

o'qitish jarayonida o'quvchilar faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi.

Art-pedagogik texnologiyalarning turlari. Ta'lim jarayonida art-pedagogik texnologiyalarning bir necha turlari qo'llaniladi. Quyida keltirilganlar orqali:

Tasviriy san'at texnologiyalari. Rasm chizish, kollaj tayyorlash, ranglar bilan ishlash kabi faoliyatlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi. Bu jarayon orqali o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadilar.

Musiqqa orqali ta'lim. Musiqqa o'quvchilarning ruhiy dunyosiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Musiqqa darslari yoki musiqiy elementlardan foydalanish orqali o'quvchilarda estetik did va madaniy qarashlar shakllanadi.

Drama va teatr texnologiyalari. Rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari va dramatisatsiya o'quvchilarning nutqini rivojlantiradi, ularni erkin fikr bildirishga o'rgatadi. Bu usul orqali o'quvchilar ijtimoiy munosabatlarni ham yaxshiroq anglay boshlaydi.

Ijodiy yozuv texnologiyalari. She'r, hikoya yoki esse yozish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishga o'rganadi. Bu esa ularning tafakkuri va ma'naviy dunyoqarashini kengaytiradi.

Art-pedagogik texnologiyalarning o'quvchilar ma'naviy dunyoqarashiga ta'siri. Art-pedagogika o'quvchilarning ichki dunyosini boyitishga xizmat qiladi. San'at bilan shug'ullanish orqali o'quvchilar hayotdagi go'zallikni ko'ra boshlaydi, insoniy qadriyatlarni chuqurroq anglaydi. Bundan tashqari, art-pedagogik texnologiyalar:

- o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat uyg'otadi;
- ularning estetik tafakkurini rivojlantiradi;
- ijtimoiy muhitga moslashish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantiradi.

Natijada o'quvchilar nafaqat bilimli, balki ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, art-pedagogik texnologiyalar zamonaviy ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish hamda ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishda katta imkoniyatlar yaratadi.

San'at orqali ta'lim berish o'quvchilarni faol fikrlashga, o'z his-tuyg'ularini erkin ifoda etishga va hayotdagi go'zallikni anglashga o'rgatadi. Shu sababli ta'lim jarayonida art-pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bu esa kelajakda ma'naviy yetuk, ijodkor va ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent.
2. Tolipov O'. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti.
3. Qodirov B. Pedagogika asoslari.
4. Xasanboyev J. Pedagogika nazariyasi.
5. Davletshin M. Ta'lim psixologiyasi.
6. Abdullayeva N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar.